

9-sinf O'zbekiston tarixi

17-dars: Turkistonda sud tizimining tashkil etilishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi, sud organlarining faoliyati, General-gubernator prokuror va oliy sud vazifasini ham bajarganligi to'g'risida, XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar, 1898-yilda Toshkent sud palatasi tuzilishi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

Muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

Turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	12 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	13 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Shariat sudi, ruhoniylar, qoziliklar, fiqh, harbiy-sud komissiyalari, mirovay sudlar, 1898-yil, Toshkent sud palatasi

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-kartochka: 1886-yilgi «Nizom»ga muvofiq vaqf yerlari ...

2-kartochka: Ko'chirib keltirilganlarga qanday imkoniyatlar yaratilgan?

3-kartochka: Agrar siyosat nima?

4-kartochka: Turkistonga rus aholisining qaysi vakillari ko'chirildi?

5-kartochka: Turkistonda dastlabki rus qishloqlari qayerlarda tashkil topdi?

6-kartochka: Yozuvsiz xaritadan 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligi hududini ko'rsating.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi;

Sud organlarining faoliyati;

XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar;

O'lkada harbiy politsiya tartiboti

Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi;



Turkiston o'lkasida imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan yana biri bu sud tizimi bo'lgan. Xonlik davrida qozilarning chiqargan qaroridan norozi bo'lganlar qozikalonga murojaat qilgan. Qozilar qat'iy belgilangan uchastkaga ega bo'lishmagan; har bir da'vogar o'zi ishongan qoziga murojaat qilgan. Qozi sud majlisi boshlanishidan oldin tomonlarga kelishib olishni taklif etgan. Bu taklifdan bosh tortilsa, qozi ularga qasam ichirib, tomonlarning arzini, guvohlarning ko'rsatmalarini tinglagan, so'ng qaror chiqargan va bu qaror mahalliy hokimiyat tomonidan zudlik bilan ijro etilgan. Odatda, qozilar, asosan, bilimdon, adolatli va xalq orasida hurmat qozongan kishilar bo'lgan. Qozilar o'zlariga murojaat qilgan tomonlarga

betaraf va ularga nisbatan beg'araz bo'lishi, ulardan pul, sovg'a, har xil xizmatlarni qabul qilmasligi lozim edi. Podsho hukumati tomonidan dastlab o'lkadagi mavjud sud tizimidagi qozikalon lavozimi tugatilib, barcha qozilarning huquqi tenglashtirildi. Boshqa mustamlakachi davlatlar singari Rossiya imperiyasi ham o'z mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida dastlab tub joy aholining diniy e'tiqodiga mos ravishda amal qilingan shariat qoidalariga asoslangan qozilik va ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi aholining urf-odatlariga asoslangan biy sudlarini butunlay tugatmasdan, uni saqlab qoldi. Milliy va diniy tartiblarga asoslangan sudlar faoliyati cheklanib, ular ustidan kichik nazorat o'rnatildi. Bu o'zgarishlar bosqichma-bosqich, mahalliy aholining noroziligini keskinlashtirmagan holda o'zgartirib borildi. Bundan tashqari shu yo'l bilan podsho hukumati vakillari ko'plab mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro janjal va kelishmovchiliklarga aralashishdan o'zini saqlashga harakat qildi.

Sud tizimida amalga oshirilgan siyosatda qozi va biy sudlari oxir-oqibat tugatilishi hamda ungacha faqat kichik ko'rinishdagi sud ishlarini, ya'ni asosan, oilaviy mojarolar, kishilar o'rtasida janjal va kelishmovchiliklarni ko'rib turishi



maqsad qilib olingan edi. 1867-yilgi «Nizom» loyihasi bo'yicha o'lkada qozilar va biy sudlari, uyezd sudlari, muvaqqat harbiy-sudlov komis-siyalari, viloyat boshqaruvining sud bo'limlari va general-gubernatorlik Devonining sudlov bo'limi tashkil qilindi.

Sud organlarining faoliyati;

Sud ishlarida mahalliy aholining o'troq qismi uchun qozi sudlari, ko'chmanchi aholisi uchun esa biy sudlari, volost boshliqlari, qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari va ularning yordamchilari aholi toronidan uch yil muddatga saylangan.

Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun 1866-yil Toshkentda mahkama joriy qiladi. Uning tarkibiga mahalliy aholi vakillaridan saylangan qozi va 7 nafar a'lam kirgan. Mahkama a'zolari podsho hukumatining o'lkadagi ishonchli va sadoqatli yordamchilari hisoblangan.

Qozi sudlarining vakolatlariga da'vo hajmi 100 rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish kirgan. Yirik da'volar esa qozilar va biylar qurultoyida ko'rib chiqilgan. Bu yig'ilishlar *xalq sudyalari qurultoyi* deb atalgan. Bular da'vo hajmi 1000 rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik ishlarini hal qiluvchi ikkinchi bosqich sudlari edi. Qozi sudi, xalq sudlari, ya'ni birinchi bosqich sudi tomonidan qonunga xilof qaror qabul qilingan taqdirda shikoyat qiluvchi keyingi bosqichga murojaat qilgan. Uchinchi bos-

qich sudlari bu turli volostlar va uyezdlar aholisi o'rtasida yuzaga kelgan bahsli ishlarni hal qiluvchi xalq sudyalari favqulodda qurultoylari hisoblangan. Qozilar aholining soniga qarab belgilangan. Toshkent shahrida to'rt dahaning bar birida bittadan to'rtta qozi, Samarqand shahrida ikkita qozi, volostlarda bittadan qozi bo'lgan.



Turkiston o'lkasida yashaydigan rossiyalik aholi uchim imperiya qonunlari asosidagi sudlar faoliyat olib borgan. Dastlab tashkil qilingan vaqtinchalik harbiy sud komissiyalari bu aholining jinoyiy ishlarini ko'rish bilan birga mahalliy aholi tomonidan sodir etilgan siyosiy jinoyatlar va hokimiyatga qarshi jinoyatlarni ko'rib chiqqan. Viloyat va o'lka sudlari vazifalari general-gubernatorlik devoni va boshqarmalari zimmasiga yuklangan edi. General-gubernator o'lkaning bosh prokurori va oliy sudyasi vazifasini ham bajargan.

XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar;

O'rta Osiyo mustamlakaga aylantirilgandan so'ng boshqa sohalar singari sud tizimi ham bosqichma-bosqich o'zgartirib borilgan. Qozi va biy sudlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda mustamlakachi hukumatning aralashuvi, saylov natijalarini tasdiqlashdagi noto'g'ri ishlar ko'plab janjallarni, mahalliy aholi o'rtasida o'zaro nizolar, ma'muriyatga nisbatan ishonchsizlik va norozilik harakatlarini keltirib chiqargan.

Sudlarga joriy etilgan saylovlar mustamlakachi hukumat ixtiyorida bo'lib, saylovda kimning g'olib chiqishi saylovchilarga qaraganda ma'muriyat xohishiga bog'liq bo'lib qoldi. Kim mustamlakachi ma'muriyatga yoqsa va unga sodiqligiga ishonch hosil qila olsa, o'sha qozi va biy bo'la olardi. Saylovlarda turli xil nayranglar, poraxo'rliklar avj olgan. Buning natijasida saylangan qozi va biylar o'z faoliyati davomida saylov vaqtidagi xarajatlarini turli yo'llar bilan, ayniqsa, poralar hisobiga qaytarib olishga harakat qilishgan. Bu bilan qozilik va biylik serdaromad mansabga aylandi. Qozilar va biylar lavozim egallashi va uni saqlab qolishi uchun mustamlakachi hukumat vakillarining sodiq xizmatkorlariga aylandi.

1886-yilgi «Nizom»da ham Turkiston o'lkasida qozilar sudi saqlanib qoldi. Uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan *uchastka mirovoy sudyalari* (sudlari) tuzildi. Viloyat boshqaruvining sud bo'limlari viloyat sudlari bilan almashtirildi. Sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi lavozimlari joriy etildi.

1898-yilda Turkiston o'lkasida sud nizomlarini qo'llash qoidalariga muvofiq viloyat sudlari tugatildi, ularning o'rniga okrug sudlari va Toshkent sud palatasi tuzildi. Toshkent sud palatasi faqat imperiyaning oliy sudi - hukumat senatiga bo'ysunar edi. Okrug sudlari Turkiston o'lkasining barcha viloyatlarida joriy etildi. Ularning tarkibi sud raisi, uning o'rinbosari va sud a'zolaridan iborat bo'lgan. Jazo chorasini sudyalar va ikki sud a'zosi tayinlardi. Ularning qarori ustidan berilgan apellatsiyani imperiyada oliy sud bo'lgan hukumat senati ko'rib chiqardi. Shunday qilib, Turkiston o'lkasidagi sud tizimi mustamlakachi hukumat vakillari va o'lka ma'muriyati nazorati ostiga o'tdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1-topshiriq: O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan tayyorlab kelingan savollar o'yini o'ynaladi. Guruhlardan o'quvchilar galma-gal chiqib strelkani aylantiradi va savollarni tanlab oladi. Savollarga javob bergan o'quvchilarga **“HIKMATLAR YOG'DUSI”** deb nomlangan rag'bat kartochkalari beriladi. Guruhdan chiqqan o'quvchi javob berolmasa guruhdoshlari yordamlashadi.


Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil topdi? (1867-yil)



2. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi «Nizom» nechanchi yil qabul qilindi? (1886-yil)
3. Toshkent shahrida qozi sudlari nechta bo'lgan? (4 ta)
4. Vakolatlari cheklab qo'yilgan mahalliy idora, boshqarma nima deyilgan? (Zerustvo)
5. Yangi ko'chib kelganlar necha yillik soliqlardan ozod etilgan? (5 yillik)
6. 1866-yil maxsus mahkama qaysi shaharda tashkil qilingan edi? (Toshkent)
7. Turkistonda qozikalon lavozimi kimning hukmronlik davrida tugatildi? (Kaufman)
8. Qabila urf-odatlar va shariatga tayanib ish ko'mvchi sudlar nima deb atalgan? (Biy sudlari)
9. Apilyatsiya so'zining ma'nosi nima? (norozilik bildirish, shikoyat)
10. Toshkent sud palatasi nechanchi yilda tuzilgan? (1898-yil)
11. O'rta Osiyoda birinchi rus qarorgohi qayerda vujudga keldi?

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	Sovg'a



O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

